PEDAGOGIKA

UDK: 370.179 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss6/a19

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIDA ZAMONAVIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK ASOSLARI (XALQARO BAHOLASH DASTURI)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ (МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРОГРАММА ОЦЕНКИ)

PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL BASIS OF FORMATION OF MODERN SKILLS IN PRIMARY EDUCATION STUDENTS (INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM)

Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi[1]

[1]Qo‘qon davlat pedagogika instituti, boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlari, yurtimizda ta’lim sohasidagi o`zgarishlar, PIRLS va TIMSS va boshqa baholash dasturlari haqida ma’lumot, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fanlarni o‘zlashtirishda xalqaro baholash dasturlarlarining ta’lim sifatini ta’minlashdagi o‘rni to`g`risida ma’lumot berilgan. Shuningdek ushbu baholash dasturlarining kelib chiqish shart-sharoitlari va yurtimizda qo`llashning huquqiy asoslari muhokama etilgan.

Аннотация

В данной статье представлена информация о программах международной оценки, изменениях в сфере образования в нашей стране, PIRLS и TIMSS и других программах оценки, информация о роли программ международной оценки в обеспечении качества образования учащихся начальных классов в освоении предметов. Также были обсуждены условия возникновения этих оценочных программ и правовые основы их применения в нашей стране.

Abstract

This article provides information about international assessment programs, changes in the field of education in our country, PIRLS and TIMSS and other assessment programs, information about the role of international assessment programs in ensuring the quality of education in mastering subjects of elementary school students. . Also, the conditions of origin of these evaluation programs and the legal basis of their application in our country were discussed.

Kalit so‘zlar: *PISA, PIRLS, IEA, TIMSS, ICCS, baholash, boshlang`ich ta`lim, texnologiya, metod, o`qitish.*

Ключевые слова: *PISA, PIRLS, IEA, TIMSS, ICCS, оценивание, начальное образование, технология, метод, обучение.*

Key words: *PISA, PIRLS, IEA, TIMSS, ICCS, assessment, primary education, technology, method, teaching.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 27- fevraldagi «Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ 4623-son Qarorida «mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish, yuksak madaniyatli, amaliykasbiy ko‘nikmalarga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagogik kadrlarni tayyorlash» kabi ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi [1].

Ushbu ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim sifati, o‘quvchilarning o‘quv yutuqlari - bilim, ko‘nikma va malakalari, kompetensiyalarini baholash borasida ilg‘or xorijiy tajribalar va xalqaro tendensiyalar bilan yaqindan tanishtirish, ularning baholash kompetensiyalarni takomillashtirish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Umumiy o‘rta ta’lim, jumladan, boshlang‘ich ta’lim sifatini baholash orqali yoshlarga sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim etish, ularda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish borasida bugun dunyoning yetakchi mamlakatlarida ustuvorlik berilayotgan xalqaro qiyosiy tadqiqotlar mohiyati va ahamiyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Bunday tadqiqotlarga, asosan, quyidagilarni keltirish mumkin: PISA– (Programme for international student assessment) o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro

dastur, PIRLS – (Progres in international reading literacy study) matnni o‘qish va tushunish bo‘yicha xalqaro loyiha. Unda 4-sinf o‘quvchilari ishtirok etadi. IEA (o‘quv yutuqlarini baholash bo‘yicha halqaro assotsiatsiya tomonidan o‘tkaziladi).

TIMSS – (Trends in mathematics and science study) – 4, 8, 11-sinf o‘quvchilarining matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha ta’lim sifatini monitoring qilish bo‘yicha xalqaro tadqiqot. IEA tomonidan tashkil etiladi. ICCS (international civic and citizensip study) – IEA tomonidan o‘tkaziladigan maktab o‘quvchilarining fuqarolik ta’limi bo‘yicha xalqaro tadqiqot.

TALIS (Teaching and learning international survey) – iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o‘qituvchilar korpusidan o‘tkaziladigan o‘qitish metodikasi bo‘yicha xalqaro tadqiqot.

ICILS (international computer and information literacy study) – IEA tomonidan tashkil etiladigan kompyuter va informatsion savodxonlik bo‘yicha xalqaro tadqiqot. maktab o‘quvchilarining axborot asrida o‘qish, ish va hayotga tayyorgarlik darajasini baholash amalga oshiriladi.

TEDS (teacher education and development study in matematics) – boshlang‘ich va o‘rta maktab matematika o‘qituvchilarining tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim sifatining jahon miqiyosida tan olinishida ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot va loyihalar samarali instrumentlardan biridir. Ular ta’lim standartlari, eng yaxshi ta’lim tizimlari misolida ta’lim samaradorligi haqida hamda ularning xizmatlaridan foydalanishning barcha uchun teng va aniqligi haqida ma’lumot beradi; ta’lim sifati sohasida yetakchi mamlakatlarda o‘xshash muammolar qanday o‘z yechimini topayotganligi, maqsad va vazifalar qanday qo‘yilayotganligini tushunib olishga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, bunday qiyosiy tadqiqotlar ta’lim siyosatini ishlab chiquvchilar, o‘qituvchilar va olimlarga xorijiy hamkasblari erishgan yutuqlar kontekstida o‘zlarining darajalarini baholash imkoniyatini beradi. Eng muhimi, bunday tadqiqotlar asosida milliy ta’lim tizimlari muvaffaqiyatli isloh qilinadi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning har biri ikkita asosiy vazifani bajaradi [5]:

1) ishtirokchi-mamlakatlarda ta’lim ahvolini o‘rganish asosida dunyoda ta’limning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

2) ishtirokchi mamlakatlarda o‘quvchilarning umumta’lim tayyorgarligini baholash va ta’lim natijalariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda dunyo ta’lim tizimlariga xos bo‘lgan yetakchi tendensiyalar asosida yaratilgan zamonaviy ta’lim paradigmalari va konsepsiyalari o‘z ifodasini topadi. Jumladan, bugungi kunda umumta’lim maktablari o‘quvchilarini turli xil madaniyat va millat vakillari bilan birga yashash va ishlash, boshqa g‘oyalar va ehtiyojlarni qadrlash; bir biriga ishonch va hamkorlik qilish; milliy chegaralardan tashqariga chiquvchi muammolarni hal qilishga o‘rgatishi zarur. Bugun maktablar iqtisodiy va ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga tayyorlashi, hali yaratilmagan ish joylarida mehnat qilishga, ixtiro etilgan texnologiyalardan foydalanishga, kelajakda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hal qilishga o‘quvchilarni tayyorlashi kerak. Rivojlangan davlatlar ta’limida bugun intellektual tafakkur ko‘nikmalaridan foydalanishga, ijodiy faoliyat va tanqidiy tahlil, muammolarni yecha olish va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida urg‘u berilmoqda. O‘quvchilarda jamoada yashash va mehnat qilishga yordam beruvchi ijtimoiy va emotsional malakalar shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotimizda PISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilari yuqori natijalarni ko‘rsatib kelayotgan Buyuk Britaniya, Gonkong, Kanada, Finlyandiya, Fransiya kabi mamlakatlarda ta’lim sifatini baholash borasidagi tajribalarni yoritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ko‘rsatib o‘tilgan mamlakatlar ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili har bir darajada ta’lim sifatini baholash sohasidagi islohatlarga zarur yo‘nalish beruvchi uchta asosiy tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi [4]:

- yangi avlod standartlarini yaratish (ochiq ta’lim natijalari va ularning predmetlar bo‘yicha aniqlashtirilishi: sifat va son darajalari; standartlarning operatsional xususiyati: predmetli ko‘nikmalarni baholash parmetrlari sifatida);

- ta’lim sifatini baholash insrumentlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- boshqaruvchi tuzilmalarga ta’lim sifatini baholash natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish va zarur hollarda tegishli tuzatishlar kiritish imkoniyatini beruvchi teskari aloqa tuzilmasini yaratish [2].

Xorijiy mamlakatlarda standartlar quyidagi maqsadlarda ishlab chiqiladi:

- o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan ta’lim mazmunini aniqlash; mamlakatda ta’lim darajasini ko‘tarish va takomillashtirish; o‘quvchilar yutuqlarini o‘lchash va baholash asoslarini yaratish;
- o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ularning ota-onalarini hamda jamoatchilikni o‘quvchilar yutuqlariga nisbatan kutganliklari to‘g‘risida habardor qilish.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha taniqli halqaro ekspert va tadqiqotchilardan Vinsent Grini va Tomas Kellagan [2] o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro va milliy tizimlarning maqsad va vazifalari, o‘ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari, baholash texnologiyalarini AQSh, Hindiston va boshqa bir qancha mamlakatlar misolida ochib bergan.

Tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholash bo‘yicha milliy tizimlar uchun quyidagi umumiy xususiyatlar taalluqli [2]: o‘quv jarayoni qanchalik yaxshi tashkil etilgan (o‘quv rejalarga va o‘quvchilarni hayotga yoki o‘qishning keyingi bosqichiga tayyorlashga nisbatan); qo‘yilayotgan baholar qanchalik o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarining kuchli va kuchsiz jihatlarini namoyon etadi; test natijalariga ko‘ra o‘g‘il bolalar va qiz bolalar, shahar va qishloq o‘quvchilari, mamlakatning turli xil mintaqalari o‘quvchilari o‘rtasida farq bormi; ta’lim natijalariga qanday omillar ta’sir etmoqda? O‘quvchilarning o‘quv yutuqlari ta’lim muhitining qaysi xususiyatlariga ko‘proq bog‘liq (maktab resurslari, o‘qituvchilarning kompetentligi, maktabnig turi va h.k.); zarur resurslar bilan ta’minlashda (darslik, malakali o‘qituvchilar va boshqa kiruvchi ma’lumotlar sifati) davlat standartlaridan foydalaniladimi; vaqt o‘tishi bilan o‘quvchilarning o‘quv yutuqlari o‘zgarayaptimi.

XULOSA

Ta’lim sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan o‘zbek ta’limini modernizatsiya qilish samaradorligi ko‘p jihatdan har xil turdagi ta’lim natijalari bo‘yicha tadqiqotlar doirasida olingan ob’ektiv ma’lumotlardan foydalanish darajasiga bog‘liq. O‘quvchi tafakkurini har tamonlama rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirishda PIRLS va boshqa dasturlar topshiriqlarini keng ko‘lamda olib borish kerak. Chunki uning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng, undan to‘g‘ri samarali foydalanish esa o‘qituvchining vazifasidir. O‘quvchining hissiy bilish, ma’lumot va ko‘nikmalarni qabul qilishga keng imkoniyat yaratish uchun erkinlik berish, uni ijodiy ishlar qilishga, bajargan ishi samarasini ko‘rib quvonishiga, yangi-yangi yutuqlarga yo‘llash zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 27-fevraldagi «Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlarito‘g‘risida» gi PQ 4623-son Qarori.
2. Grin Vinsent. Milliy darajadagi ta'lim yutuqlarini baholash / Vinsent Greni, Tomas Kellaghan; ingliz tilidan tarjima T.N. Leonova; ilmiy ed. M. B. Chelyshkova. – M.: Logos, 2011. – 208 b.
3. Nurmanov A.T., Mustafakulov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida TQM-sifatni yalpi boshqarish tizimi. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDPU, 2019. - 160 b.
4. Boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. TDPU huzuridagi Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish instituti. Toshkent. 2018. – 160 b.
5. Gaynazarova G.A. Mashg‘ulotlarda interfaol muhitni yaratish omillari. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent: – 2018. – B.225.
6. Davletshin M.G. Boshlang‘ich ta’limning psixologik omillari // Xalq ta’limi tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1996. -B. 132-134.
7. Davletov E.Yu. Boshlangich ta’limga PIRLS baholash dasturi imkoniyatlari. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent: – 2018. – B.248.
8. Rabbonaeva D.T. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni o‘zlashtirish darajasini takomillashtirish usullari”. Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma. – Samarqand, 2020-yil.
9. Vostrikov, A.A. Elita maktabida kompetensiyaga asoslangan yondashuv nazariyasi va texnologiyasi asoslari. Muallif modeli. / - Tomsk: mahsuldor pedagogika, 2016. - 218 p.
10. www.ziyonet.uz